



## YUVENAL ADLIYA TIZIMIDA VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLARNI YURITISHGA OID O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PROTSESSUAL QONUNCHILIGI TAHLILI

**Rashidov Bexzod Nurboevich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

**Abdurahmonov Toshmurod Dilmurodjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 1-o'quv kursi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8166591>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> July 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> July 2023

Online: 19<sup>th</sup> July 2023

### KEY WORDS

*Yuvenal adliya, bola huquqlari, voyaga etmaganlar, yuvenal adliya mexanizmi, ixtisoslashtirilgan sudlar, bolalar ombudsmani, yumshoq protsess, ijtimoiy himoya, xalqaro bola huquqlari.*

### ABSTRACT

*Maqolada bugungi kunda ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligida mavjud bo'lgan yuvenal adliya tizimi, voyaga yetmaganlar jinoyatlariga oid ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari va ushbu sohadagi muammo va kamchiliklar, olib borilishi lozim bo'lgan tizimli va ischil ishlar, istiqboldagi vazifalarning mazmun mohiyati yoritilgan.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlash, bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasida, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Shu bilan qatorda bolalarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishni ta'minlash maqsadida sud-huquq sohasida ham bir qancha islohotlar tizimli ravishda davom etmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qoshidagi Tadqiqot markazi va UNICEF bilan hamkorlikda mamlakatimizning 14 viloyatlaridagi jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarining sudyalarini bolalar huquqi sohasidagi xalqaro standartlari va bolalarga nisbatan do'stona sud taomillarini o'qitish bo'yicha rejali ishlari amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda xalqaro hamjamiyatda tez-tez bola huquqlari tizimi "Yuvenal adliya", "Yuvenal huquqiy mexanizm" kabi so'zlarni eshitmogdamiz. Aslini olganda, Yuvenal adliya – (*Juvenile Justice*) bolalar huquqbuzarligi, bolalar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, bolalarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish mexanizmi, huquqbuzar bolalar uchun mo'ljallangan muassasalar tomonidan bolalarga qilinadigan muomala usullari va huquqbuzarlikning oldini olish yo'llari kabi mavzular qamrab olinadigan o'ziga xos tizimdir [10].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" sining 4-maqsadida ham "Yuvenal adliya" tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash, jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish kabi ustivor masalalarning qo'yilganligi ham albatta



mamlakatimizning bu sohadagi siyosatni istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik Akmal Saidov, bugungi kunda yuvenal yustitsiya voyaga yetmaganlarga nisbatan yuritilayotgan odil sudlovning umume'tirof etilgan xalqaro standarti hisoblanishi, milliy qonunchiligimizda uning huquqiy hamda institutsional asoslari mavjudligi, o'z navbatida, hozirda yurtimizda qizg'in kechayotgan konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida ushbu institutning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash masalasi muhim o'rin egallashiga urg'u bergan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 16-bandida ham O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha idoralararo komissiya hamda Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha idoralararo ekspert guruhi tegishli kodekslar ishlab chiqilishida foydalanish va milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida yuvenal adliya tizimini joriy etish bo'yicha konsepsiya loyihasini ishlab chiqilishi belgilangan. Umuman olganda voyaga yetmaganlar ishlarini tergov qilishda voyaga yetmagan har bir shaxsning huquqlari, erkinliklari to'laqonli ta'minlanishi ularning xatti-harakatlariga nisbatan to'g'ri qarashlar shakllanishi uchun bugungi kunda milliy qonunchilik tizimimizni xalqaro huquq tizimlariga moslashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, mamlakatimiz qonunchiligiga "yuvenal adliya" tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bularidan maqsad bola huquqlari va ularning kafolatlarini ta'minlash, bolalar jinoyatchiligi sabablari va sharoitlarini o'rganish, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni jamiyatda munosib o'rnini topishiga ko'maklashishdir.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksida ham voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarni tergov qilish alohida e'tiborli masala sifatida qaralgan bo'lib, umumiy asoslardan tashqari alohida tartibda tergov olib borish belgilangan. Albatta, bu masalaga nafaqat jinoyat-protsessual qonunchilik balki ko'plab boshqa qonunchilik sohaslarida ham kafolatlangan masala sifatida qaraladi. Masalan mehnat qonunchiligi, jinoyat qonunchiligi, oila to'g'risidagi qonunchilik, fuqarolik to'g'risidagi qonunchilik va boshqa sohalarda ham aynan voyaga yetmaganlarga oid masalalar uchun alohida tartib belgilanganligini ko'rish mumkin.

Aynan voyaga etmagan shaxs bu o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsdir. Bundan ko'rinib turibdiki ular muomala layoqatiga to'liq hajmda ega emas va ular o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda voyaga yetgan shaxslarga nisbatan psixologik, fiziologik, intellektual jihatdan tenglasha olmaydilar. Shu sababli ham bugungi kunda jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchilik sohasida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyat ishlarini tergov qilish va jazo tayinlash masalasi alohida e'tibor talab etiladigan dolzarb masala hisoblanadi. Hozirda milliy qonunchiligimizda voyaga yetmaganlar ishlarini yuritish xalqaro umume'tirof etilgan normalarga mutanosib ravishda olib borilishi belgilangan. Hozirgi vaqtda sudlar voyaga yetmaganlarning jinoyatlari bilan bog'liq ishlarni ko'rishda har doim ishga oid isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning barchasini sinchkovlik bilan, har tomonlama to'la va xolisona tekshirib chiqishi kerak. Bu masalada sudlar sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini va sudlanuvchining shaxsini e'tiborga olgan holda aniqlangan haqiqiy holatlar va dalillarga to'g'ri baho berishi, odillik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilishlari zarur [9].

Bugungi kunda protsessual qonunchilikda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rishda ayblanuvchi ayni vaqtda voyaga yetgan-



yetmaganligidan qat'iy nazar, bunday ishlar bo'yicha advokat ishtirok etishi shart ekanligi belgilangan. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning [551](#) va 562-moddalariga muvofiq sud voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari ko'riladigan vaqt va joy haqida ularning ota-onasini, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni, vasiylik yoki homiylik organi vakillarini, voyaga yetmaganlar o'qigan yoki ishlagan korxonalar, muassasa, tashkilotni, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyani, zarur bo'lsa boshqa tashkilotlarni ham xabardor qilishi zarurdir. Ish davomida sud yuqoridagi shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilish uchun sud majlisiga chaqirishga haqli ekanligi belgilangan. Agar voyaga yetmagan shaxslarning ota-onasi bo'lmasa va u yolg'iz yashayotgan yoxud tegishli ravishda vasiy yoki homiy etib tayinlanmagan shaxs bilan yashayotgan bo'lsa, sudda voyaga yetmaganning qonuniy vakili sifatida vasiylik yoki homiylik organining vakili ishtirok etishi belgilangan [2].

**Qonunchilikda voyaga yetmaganlarga nisbatan ishni sudga qadar yuritish vaqtida, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi qo'llanilishi, qamoqqa olish ehtiyot chorasini faqatgina ishning qamrovi va og'irlik darajasidan kelib chiqqan holda tayinlanishi va voyaga yetmagan shaxslarning qamoqqa olinishi asossiz deb topilgan har qanday hollarda sud darhol ehtiyot chorasini o'zgartirishi lozimligi belgilangan.**

Ishni yuritish vaqtida sudlanuvchining yoshi masalasi ham alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan masala. Amaldagi qonunchilikda shaxsning yoshini aniqlash imkoni bo'lmaganda (shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etish imkoni bo'maganda, shaxsi aniqlanmaganda yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar o'zi mavjud bo'lmaganda) sudlanuvchining yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanayotganda, uning tug'ilgan kuni deb, ekspertlar aniqlagan yilning oxirgi kuni hisoblanadi. Yosh eng kam va eng ko'p yillar miqdori bilan aniqlanganda, sud ekspertlar tomonidan belgilangan eng kam yoshdan kelib chiqib belgilanishi lozim. Agar voyaga yetmagan shaxs rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan, boshqa shaxslarga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o'rniga majburlov chorasi qo'llashi mumkin.

**Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs agar, sodir etilgan qilmishining xususiyati, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, sud uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelsa, ishni ko'rish uchun tayinlash bosqichida ishni tugatish va uni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga yuborish haqida ajrim chiqaradi [2].**

Sudlov paytida sudlar voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash masalasida birinchi navbatda, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, ana shu shaxslarga oid ma'lumotlarni hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olib, imkon qadar ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni qo'llashi zarur. Agar shaxsni jamiyatdan ajratmasdan turib qayta tarbiyalashning imkoniyati bo'lmagan hollardagina ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashi mumkinligi qonunda belgilangan. Yana bir e'tiborga sazovor masala shuki, sudlar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari sudda ko'rilayotganda jinoyatni keltirib chiqargan sabablarni aniqlab, ularni bartaraf qilish uchun xususiy ajrim chiqarishlari shart bo'ladi.



Albatta, hozirgi vaqtga kelib bu sohada ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolar haqida UNICEFning ma'lumotlariga [19] tayangan holda to'xtalamiz:

- O'zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimining tarkibiy qismlari institutsional darajada bo'lishiga qaramasdan, kadrlarning yetishmasligi, moliyalashtirishning yetarli emasligi va idoralararo muvofiqlashtirishni yo'qligi tufayli samarali faoliyat ko'rsatmaydi.
- Ixtisoslashgan mutaxassislarining, shu jumladan, barcha sud jarayonlarida bolalar bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish uchun ixtisoslashgan sudyalarning yo'qligi yana bir muammoli masala.
- Jinoiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishda bolalar uchun belgilangan huquqiy kafolatlar to'liq ta'minlanmaganligi.

UNICEF huquqbuzarlik sodir etgan yoki xatar guruhida bo'lgan bolalarga yanada to'liq himoyani ta'minlash maqsadida sud-huquq tizimini takomillashtirish eng maqbul masala sifatida ko'plab davlatlar bilan mintaqaviy hamkorlik ishlarini olib bormoqda.

**Sudlar tizimida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar bo'yicha voyaga yetmagan ishlari bo'yicha ixtisoslashgan umumyurisdiksiya sudlari tashkil etilishi.**

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni tergov qilishda dastlabki tergov organlaridan boshlab sud organlariga qadar ixtisoslashuv mexanizimi ko'plab xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu mexanizm Germaniya, Fransiya, Britaniya, Ukraina, Findlaniya, Rossiya kabi davlatlarda o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Voyaga yetmaganlar ishlarini tergov qilish va sudlov bolaning ruhiyati, uning jismoniy rivojlanganlik darajasi, ongning shakllanishi, undagi o'zgarishlar umuman olganda shaxsning har tomonlama rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda **“yumshoq protsess”** jarayonini milliy qonunchilikda yaratish masalasi bugungi kun dolzarb muammolarining yechimi sifatida qaralishi mumkin [16].

**Barcha bo'g'indagi tergov organlarida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yilishi. Ushbu jarayonda voyaga yetmaganlar ishlarini tergov qilish ustidan prokuror nazoratini kuchaytirish va ushbu nazoratni amalga oshiruvchi “nazorat bo'limi” (prokuratura organlari tizimida) tashkil etish lozim.**

Bunday bo'linmalar xuddi sudlar kabi aynan voyaga yetmagan shaxslarning ishlarini yuritishi, tergov jarayonida voyaga yetmagan shaxsning psixologik, fiziologik doirasidan kelib chiqib tergov harakatlarini olib borishi, shu bilan birgalikda ishni yuritishda psixolog, pedagog, himoyachining ishtirokini ta'minlash choralari chuqurlashtirilishi, voyaga yetmagan shaxslar uchun alohida tartibli tergov xonalari tashkil etilishi, surushtiruvchi (tergovchi) larning muntazam ko'nikmalarini oshirib borish lozim. Albatta, bunday eksperimentlar jahonda ko'plab mamlakatlar tomonidan qo'llanilmoqda va bu “bolalarga nisbatan odil sudlovni” amalga oshirish institutini takomillashtirish borasida yana bir ildam qadam vazifasini bajaradi.

**Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda bolalar ombutsmanni va uning joylardagi vakillarining huquqiy maqomini tartibga solish va ro'lini oshirish.**



Bola huquqlari bo'yicha vakilning jinoyat-protsessual qonunchilikda maqomini qonun yo'li bilan tartibga solish, shuningdek, ushbu ishlar yuzasidan tizimli nazorat va monitoring yuritish vakolatini qonunda belgilash va h.k.

Xulosa qilib aytganda voyaga etmaganlar jinoyat ishlariga oid protsessual qonunchilik yuvenal adliya tizimining o'zaklaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish uchun esa bugungi kunda izchil ishlar amalga oshirilmogda. E'tiborli jihati, yuvenal adliya ko'plab xalqaro hujjatlarda bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi asosiy institut sifatida ko'rsatib o'tilgan. Xalqaro standartlar va xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda mamlakatimizda yuvenal adliyaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish istiqbollari aniqlash, shu jumladan, uning konseptual va bazaviy asoslarini qonunchilikda mustahkamlash – bu boradagi milliy amaliyotning rivojlanishiga zamin yaratadi. Buning uchun esa O'zbekistonda yuvenal adliya bo'yicha milliy qonunchiligimizni va huquqni qo'llash amaliyotini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish, rivojlangan demokratik mamlakatlarda samarali qo'llanilayotgan yuvenal adliya modellarini tahlil qilib, ularning ma'qul tomonlarini aniqlash, milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
4. "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son farmoni.
5. "O'zbekiston respublikasi Oliy majlisining bola huquqlari bo'yicha vakili (bolalar ombudsmani) faoliyatini tashkil etish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senati kengashining qo'shma qarori.
6. "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296 son qarori.
7. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son farmoni.
8. "Voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti" to'g'risida O'zbekiston respublikasi Oliy sudi plenumining 21-sonli qarori 2000-yil 15-sentabr.
9. Bola huquqlari. Yuridik Oliy o'quv yurtlari uchun darslik G'. Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2008 yil.
10. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qollanma. T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. — B. 163.
11. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qollanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006 yil.



12. Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma /Mas'ul muharrir A.X.Saidov. T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011 yil.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

### **Xorijiy adabiyotlar:**

14. Ветрова Г.Н., Мелникова Э. Б. Закон о ювенальной юстиции в Российской Федерации. Проект // Правозащитник. 1996 г

15. Ткаченко А. В. Ювенальная юстиция в России: за и против Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. 2018 г.

16. С.Н. Апатенко «Ювенальная юстиция в системе государственной молодежной политики» //Материалы «круглого стола» Государственной думы ФС РФ «Становление ювенальной юстиции в России: опыт, проблемы и перспективы», 20 марта 2006 г.

17. «Международно-правовое регулирование ювенальной юстиции в документах организации объединенных наций» В.Н. Стешенко.

### **Elektron manbalar:**

18. <https://lex.uz/>

19. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz>

20. <http://www.Oliysud.uz/>

21. <https://ziyonet.uz/>

22. <http://pravo.gov.ru/>

23. <http://www.juvenilejustice.ru>